

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

B.M. Kalcinov

2024 yil 09.09

Ro'yxatga olindi № 2024/MG·TvN13400
2024.09.09.

MILLIY G'OYA TARIXI VA NAZARIYASI

O'QUV DASTURI

Kunduzgi

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60112100- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

Navoiy– 2024

Fan/modul kodi MG*TyN13400	O'quv yili 20242025	Semestr 3	Kreditlar 5	
Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
		Milliy g'oya tarixi va nazariyasi	60	90
2.	I. Fanning mazmuni			
	<p>"Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fani bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, ushbu fan eza g'oyalardan va sog'lom mafkuradan mahrum bo'lgan biron bir millat va jamiyat uzoqqa bora olmasligini o'rgatadi, har qanday xalq va davlat o'z taraqqiyotining g'oyaviy-mafkuraviy tamoyillarini belgilab olishi zarurligini uqtiradi, yoshlarning qalbi va ongiga Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat ruhini singdiradi. Bu esa, kelajagimizni yaqqol tasavvur etish, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yet g'oyalar tajovuziga qarshi tura olish, g'oyaviy bo'shliq bolashiga yo'l qo'ymaslik, va nihoyat, yurtimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy g'oyaning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish imkonini beradi.</p>			
	II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)			
	II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:			
	I-Modul: Milliy g'oya va ma'naviyat tarixi va nazariyasi fani predmeti, maqsad va vazifalari			
	1-mavzu. "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.			
	<p>"Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fanining shakllanishi, ob'ekti va predmeti. "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" ob'ekti xalqimizning tarixiy, milliy - ma'naviy merosi, qadriyatlar, maqsad va mo'ljallari, demokratik prinsiplarini namoyon bolishining umumiy va milliy xususiyatlarini o'rganish. Fanning predmeti - milliy g'oya va mafkuraning tarixiy ildizlari, xalqimizning ma'naviy merosi va qadriyatlarining shakllanishi, unuminsoniy demokratik prinsiplar, milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalarning o'zaro munosabati, uni taqozo etuvchi umumiy va o'ziga xos xususiyatlar. Fanning maqsadi - milliy g'oyaning shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va negizlarining xalqimiz hayotida tutgan o'rnini va rolini o'rganish, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oya va mafkuraning ahamiyatini ochib berish.</p>			

2-mavzu. Milliy g'oya axborot madaniyati evolyutsiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati

Milliy g'oya axborot madaniyati tushunchasi evolyutsiyasi va o'ziga xos dialektikasi. Muloqot va ma'lumot tushunchasining uzviyligi va o'ziga xosligi. Muloqot va malumotning inson hayotidagi o'rnini, ahamiyati va manaviy ehtiyojga aylanishi. Milliy g'oya axborot madaniyati kommunikativ vosita sifatida va foydalanish usullari.

Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Milliy g'oya, axborot madaniyati tushunchasi, mazmun va mohiyati. Axborot madaniyati tushunchasi mazmun va mohiyati. Axborot olish va foydalanish metodlari.

3-mavzu. XVI-XIX asrlarda vujudga kelgan g'oyaviy mafkuraviy bilimlar va harakatlar

Shayboniylar davlatining tashkil topishi. Xalqaro munosabatlar tizimida Xuroson muammosi. Shayboniylar-Safaviylar, Shayboniylar-Boburiylar, Qo'qon-Xitey munosabatlari. Markaziy Osiyoning jahon bozorida o'zilib qolishi va uning oqibatlari.

Xonliklar va Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari. Cherkasskiy, Buxgolts, Beneveni, Xoxloy elchiliklari va ulardan ko'zlangan geosiyosiy mafkuraviy maqsadlar. Ma'rifatparvarlik harakati.

4-mavzu. XX asr mafkura asri sifatida

Yangi pedagogik texnologiyalar «Milliy g'oya tarixi va nazariyasi» fanini milliy manfaat, milliy xavfsizlik, milliy g'oya, milliy mafkura, mafkuraviy tahdid, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy xavfsizlik, yoshlar tarbiyasi kabi masalalarini qamrab olishi zarur. Mazkur fan mustaqil fikrga ega ma'naviy barkamol, komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlashda uning ma'naviy mafkuraviy bilimlarini oshirishga har jihatdan yaqindan yordam bermog'i lozim.

II-modul: O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar

5-mavzu. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar

Ikki qutbli dunyoning barham topishi, «sovuq urush» ning tugashi. Dunyoning yangi siyosiy xaritasi. Yangi ming yillik arafasida o'z yechimini topmayotgan muammolar. Endilikda xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin? Barqarorlikni qanday ta'minlash darker? Taraqqiyot yo'lidan rivojlanishga nimalar xisobiga erishish mumkin. Muammoga yondashuv usullari: tarixiylik va mantiqiylik, izchillik, makon va zamon va boshqalar.

Insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar. Mintaqaviy mojaro mohiyati va O'zbekistonning geosiy manfaatiga zidligi. Geosiy va etnik asosdagi tahdidlar va ularning echimi bilan bog'liq taklif va xulosalar.

6-mavzu. Milliy g'oyaning shakllanish tarixi, uning namoyon xususiyatlari.

Inson, millat va jamiyat hayotida g'oya va mafkuraga bo'lgan talab-ehtiyojlar. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari. Dastlabki g'oyaviy qarashlar va ularning manbalari. Urug'-qabilachilik davrlarida qabilalami birlashtirishga xizmat qilgan ilk g'oyalar va qarashlar. Milliy g'oyaning tarixiy negizlaridagi asosiy manbalar va undagi ilg'or g'oyalar. Urxun Enasoy bitiklari, undagi ilg'or g'oyalar. Xalq og'zaki ijodi namunalarini, urf-odat va an'analarda qahramonlik motivlari, milliy va umuminsoniy g'oyalar ko'rinishlari. Vatun ozodligi yo'lidagi kurashlarda erkinlik, ozodlik, hamjihatlik, vatanparvarlik bilan bog'liq turli g'oyalarning namoyon bo'lishi.

III-modul: Mustaqillik va milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamomoyillar konsepsiyasining ishlab chiqishilishi.

7- Mavzu: Mustaqillik va milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamomoyillar konsepsiyasining ishlab chiqishilishi.

Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekistonda jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslarining o'zgarishi. Kommunistik g'oyadan voz kechilishi. Mamlakatimizda jamiyat ijtimoiy hayotining asoslariga yangicha qarash, uning huquqiy asoslari. O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy hayot sohalarining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma xilligiga asoslanishi. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj. Birinchi Prezident Idom Karimov asarlarida milliy istiqlol g'oyasining nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi, uning mazmun va mohiyati.

8-mavzu. Milliy g'oyada inson eng oliy qadriyat.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida insonparvarlik g'oyalarining takomillashuv jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo'lishi. Yangi g'oyalar tizimidagi ustuvor tamoyillar, ulami amalga oshirishning dolzarb vazifalari. Istiqlolga asoslangan yangi g'oyalar tizimini takomillashtirish, uning ma'naviy ta'sirchanligi va mafkuraviy samarasini oshirish usullari va yollari.

Inson, uning sha'ni va qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy kafolatlari. Mustaqillik yillarida inson manfaatlari, erkinliklariga berilgan e'tibor hamda uning milliy g'oyada o'z ifodasini topishi. Sud-huquq sohasidagi islohotlar, o'lim jazosining bekor qilinishida insonparvarlik siyosatining namoyon bo'lishi. Milliy g'oya - inson qadr-qimmatini yuksaklarga ko'tarish omili. Milliy g'oyada inson - eng oliy qadriyat ekanligi.

9-mavzu. Milliy g'oya negizlarini asrab - avaylash, uni himoya qilish shart sharoitlari va omillari.

Milliy g'oyaning negizlari tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Milliy ma'naviy meros va umuminsoniy demokratik prinsiplar. Ruhiy safarbarlik va ma'naviy jipslikning milliy g'oya negizida shakllanishi.

Milliy g'oya va milliy ma'naviy meros o'rtasidagi uzviylikini birinchi Prezident Islom Karimov asarlarida nazariy asoslanishi.

10-mavzu. Milliy g'oya - O'zbekiston xalqining ishonch-e'tiqodi manbai.

Jamiyatni erkinlashtirish va davlat qurilishini demokratlashtirishda milliy g'oyaning roli. Jamiyatni demokratlashtirish jarayoni - milliy g'oyani rivojlantirish omili. Milliy g'oyaning gumanistik mohiyati. Demokratiya tamoyillari tizimida mafkuraviy plyuralizmning ahamiyati. G'oyaviy-mafkuraviy munosabatlami qonuniy-huquqiy boshqarish masalalari. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurilishining mafkuraviy kafolatlari. "Vatanni sevmoq iymondandir" g'oyasining mazmuni va ahamiyati. Vatanparvarlik g'oyasining ijtimoiy-ruhiy asoslari, siyosiy mazmuni, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashning g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. Ko'pmillatli mamlakatimiz aholisi ongida "O'zbekiston - yagona Vatan" g'oyasini shakllantirish vazifalari. Milliy g'oyaning fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati.

11-Mavzu. Milliy g'oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash omili

O'zbekiston ko'pmillatli, polietnik davlat ekanligi. Milliy g'oyada turli millatga mansub xalqlarning manfaatlari va maqsadlarining ifodalanishi. "Millatlararo totuvlik" tushunchasi, uning milliy g'oyada aks etishi. Uning titil millat va mamlakat, davlatni anglatishi. Milliy g'oyaning turli millat ilg'or vakillari ongining mahsuli ekanligi. Milliy g'oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlik omili. Uni amalga oshirish shart-sharoitlari. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda milliy g'oya rolining oshib borishi.

12-Mavzu:Yot va zararli g'oyalarning ko'rinishlari, ularning oldini olishda milliy g'oyaning o'rni va ahamiyati

Yot va zararli g'oyalar, g'oyaviy kurash tushunchalari, ularning mazmun va mohiyati.

O'zbekiston hayoti va taraqqiyotiga g'oyaviy tahdidlar, ularning ko'rinishlari va namoyon bo'lish xususiyatlari. Tahdidlarning ichki va tashqi yo'nalishlari, ijtimoiy ildlari. Diniy ekstremizm va terrorchilik, ommaviy madaniyat va demokratik g'oyalarni niqob qiluvchi ma'naviy-mafkuraviy oqimlar, ularning faoliyat usullari va xavfsizlikka tahdidi.

O'zbekistonga qarshi axborot xurujlari, ularning asl maqsadlari va ta'sir yo'nalishlari. G'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning moddiy-iqtisodiy va ruhiy-ma'naviy tayanchlari hamda texnik va texnologik imkoniyatlari. G'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashda mafkuraviy vositalar, uslub(metod)lar ta'sirchanligi masalasi.

Jamiyatda g'oyaviy kurashni tashkillashtirish, boshqarish va aniq maqsadlarga yo'naltirish usullari va vositalari. Fikrga qarshi - fikr, g'oyaga qarshi-g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyili. G'oyaviy kurashda fan, din, adabiyot, san'at hamda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishda ma'naviy-ma'naviy tadbirlarning o'rnini. Jamiyatda mafkuraviy profilaktikani kuchaytirish va fuqarolarda "mafkuraviy immunitet"ni shakllantirish. Kelajakka umid va ishonch - g'oyaviy xavfsizlikning muhim omili.

13-Mavzu: "Ommaviy madaniyat" ning milliy g'oyaga zidligi, uning oldini olish shart-sharoitlari, omillari.

"Ommaviy madaniyat" tushunchasining ma'no-mazmuni. Uning milliy g'oya maqsadlari va negizlariga zidligi. "Ommaviy madaniyat" g'oyalarini tarqatishga urinishlar. Ularning texnik imkoniyatlari.

"Ommaviy madaniyat" ning milliy ma'naviyat negizlariga, milliy g'oya, ma'naviy meros va demokratik prinsiplariga zid ekanligi. Ommaviy madaniyat eskalatsiyasining xavf-xatari va tahdidli ekanligi. Dunyo halqlarini milliy o'zligidan begonalashtirish, yoshlarning ongiga g'oyaviy ta'sir ko'rsatish, ularni marqat (zombi)ga aylantirishdan ko'zlangan maqsadlar.

"Ommaviy madaniyat" xavfining oldini olish shart-sharoitlari va omillari, bunda yuksak ma'naviyat va milliy g'oyaga ishonch-e'tiqodni oshib borishining ahamiyati.

14-Mavzu: Dunyodagi mafkuraviy kurashlar sharoitida milliy g'oya va ma'naviyatning zarurligi.

Dunyoda mafkuraviy kurashlar va uning sabablari. Mafkuradan ko'zlangan maqsadlarning xilma-xilligi. Ezgu, bunyodkor mafkuralar. Yovuz va buzg'unchi mafkuralar. Mafkuraviy kurashlarning tarixiy ko'rinishi, shakllari. Mafkuraviy kurashlarni turli xil siyosiy mafkuraviy yo'nalganligi. Dunyodagi global o'zgarishlar. I.A. Karimov mafkuraviy poligonlarning yadro poligonlaridan xavfli ekanini, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zarurligi to'g'risida. Mafkuraviy

kurashlarning oldini olishda milliy g'oyaning zarurligi. Yovuz va tajovuzkor mafkuralarga qarshi kurashda milliy g'oya rolining oshib borishi.

IV-modul: Yangi O'zbekistonda kamil insonni shakllantirishda milliy g'oyaning o'rnini.

15-Mavzu: Kamil insonni shakllantirishda milliy g'oyaning o'rnini.

Kamil inson va barkamol avlodga xos bo'lgan fazilatlar. Barkamollik sifatleri, mezonlari.

O'zbekistonda ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida barkamol avlod tarbiyasiga munosabat. Ta'lim-tarbiyaning milliy g'oya negizlariga asoslanishi hamda barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.

Kamil insonning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, shart-sharoitlar. Barkamol avlodning shakllanishi, unga xos xususiyatlar: yangicha tafakkur, falsafiy dunyoqarash, ma'naviy axloqiy poklik, yuksak ma'naviyat. Tashabbuskorlik, tadbirkorlik va fan yutuqlaridan bahramand bo'lish, ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

16-Ma'naviyatga tahdidlarni oldini olishda milliy g'oyaga tayanish zarurati

G'oyaviy-mafkuraviy ishlarini tashkillashtirish va boshqarishning demokratik asoslari, bu boradagi ilmiy yondoshuv va tamoyillar: tizimlilik, ilmiylik, izchillik, uzluksizlik, maqsadga muvofiqlik, plyuralizm, differensial yondoshuv va boshqalar. G'oyaviy-mafkuraviy ishlarida nazariya va amaliyot birligini ta'minlash masalalari. Turli bosqich, soha, yo'nalish, daraja va ko'lamdagi g'oyaviy-mafkuraviy ishlarini demokratiyalashtirish va modernizatsiyalash, ta'lim va targ'ibot texnologiyalarini takomillashtirish vazifalari.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasida belgilangan vazifalar, ularning g'oyaviy-mafkuraviy mazmuni. Fuqarolik jamiyati qurilishining asosiy bosqichlari, yo'nalishlari va rivojlanish istiqbollari.

Milliy g'oya maqsadlarining mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish maqsadlari bilan moshtarakligi, uni yanada rivojlantirish istiqbollari.

17-Mavzu: Milliy g'oyaning ilmiy o'rganish, o'qitish va targ'ib-tashviq qilishning nazariy-metodologik asoslari.

G'oyaviy-mafkuraviy ishlarida ilmiy usul-yondoshuvlarni tanlash masalalari, bu boradagi qarashlar va munosabatlarni mohiyati.

Milliy g'oyani ilmiy o'rganish, o'qitish va targ'ib-tashviq qilishda falsafa faniga tayanish zarurligi. Falsafiy yondoshuv va tamoyillar tizimi. Ontologiya, metodologiya, gnoseologiya, aksiologiya, praktsiologiya, etika, estetika va boshqa falsafiy fanlar, ularning nazariy-metodologik mazmuni va

sistemali xarakteri. Milliy g'oya va mafkurani hamda ular bilan bog'liq masalalarni falsafiy yondoshuv va tamoyillar asosida yoritish usullari. Ontologiya, ontologik yondoshuv, uning g'oyaviy-mafkuraviy ishlardagi o'imi. Milliy g'oya va mafkuraning ontologik mazmunini yoritish zaruriyati. G'oyaviy-mafkuraviy masalalarga falsafiy-ontologik yondoshuvning ilmiy-amaliy ahamiyati. Metodologiya. G'oyaviy-mafkuraviy masalalarni falsafiy metodologik nuqtai nazardan tahlil qilish usullari. Milliy g'oya va mafkuraning metodologik mazmuni, uni ilmiy yoritish zaruriyati.

V-modul: O'zbekistonda g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot institutsional tizimini rivojlanish jarayonlari

18-Mavzu: O'zbekistonda g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot institutsional tizimi.

G'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi va boshqa ta'lim-tarbiya shakllari bilan aloqadorliklari. G'oyaviy ta'lim-tarbiyaning ob'ekti, sub'ekti, usul-vositalari hamda inson va jamiyat hayotiga ta'sir yo'nalishlari. Davlat va jamiyat taraqqiyotida g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqotning o'imi, roli va ahamiyati. O'zbekistonda va dunyodagi boshqa mamfakatlarda amalga oshirilayotgan g'oyaviy-mafkuraviy ishlar, ularning tashkiliy-uslubiy asoslari va yo'nalishlari. O'zbekistondagi g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot institutsional tizimi, uning demokratik xususiyatlari. G'oyaviy-mafkuraviy ishlarga mutasaddi muassasa-tashkilotlar: Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, g'oyaviy ta'lim-tarbiya tizimi, ularning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari, maqsadlari va vazifalari. G'oyaviy-mafkuraviy ishlarda ta'lim muassasalarining o'imi. G'oyaviy-mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish va boshqarishning demokratik asoslari, bu horadagi ilmiy yondoshuv va tamoyillar: tizimlilik, ilmiylik, izchillik, uzluksizlik, maqsadga muvofiqlik, plyuralizm, differensial yondoshuv va boshqalar. G'oyaviy-mafkuraviy ishlarda nazariya va amaliyot birligini ta'minlash masalalari. Turli bosqich, soha, yo'nalish, daraja va ke'lamdagi g'oyaviy-mafkuraviy ishlarni demokratiyalashtirish va modemizatsiyalash, ta'lim va targ'ibot texnologiyalarini takomillashtirish vazifalari.

19-Mavzu: Jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy, mafkuraviy manfaatlari.

Markaziy Osiyo davlatlariga xavf solayotgan asosiy tahdidlar: suv resurslaridan foydalanish; atrof-muhit degradatsiyasi, millatlararo to'qnashuvlar, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm i demografiya.

Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatning namoyon bo'lish xususiyatlari.

Suvning tanqisligi va sho'rlanganligi. Suv muammosining siyosiy tus olishi. Ittifoqdan qolgan og'ir meros. Milliy-hududiy chegaralash va uning okibatlari: Farg'ona va O'sh voqealari.

O'zbekistonda milliy siyosatning asosiy tamoyillari. Afg'oniston - MO xavfsizligiga asosiy tahdid. MO xavfsizlikning ta'minlashda ODKB ning tutgan o'imi. Integratsiya -muammolarning echimining asosiy omili sifatida.

20-Mavzu: Yangi O'zbekistonda fuqarolarning faollashuvida milliy g'oya va mafkuraning ahamiyati.

Yoshlar, mafkuraviy immunitet tushunchalarining ma'no-mazmuni. Yoshlarga xos xususiyatlar. Yoshlarga turli g'oya va mafkuralarning ta'siri. Ularning immunitetini mustahkamlash zarurligi. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash shart-sharoitlari. Yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini oshirish. Ularda milliy madaniy merosni hurmat qilish, tarixiy xotirani, qadriyatlarini e'zozlash, demokratiya va qonun ustivorligiga amal qilish fazilatlarini shakllantirish.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Milliy g'oyaning shakllanish tarixi.
2. O'rta asrlardagi g'oyaviy qarashlar tarixi va rivojlanish xususiyatlari.
3. Ma'rifatparvalik g'oyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari
4. Mustamlakachilik mafkurasi va uning xalqimiz hayotiga salbiy oqibatlari
5. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: g'oyaviy- mafkuraviy jarayonlar. Mustaqillik va milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamomoyillar konsepsiyasining ishlab chiqishilishi.
6. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida milliy g'oyaning nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi
7. Sud- huquq tizimidagi islohotlar, o'lim jazosining bekor qilinishida insonparvarlik siyosatining namoyon bo'lishi
8. Milliy g'oya negizlarini asrab - avaylash, uni himoya qilish shart sharoitlari va omillari.
9. Milliy g'oya va ommaviy axborot vositalari.
10. Milliy g'oyaning gumanistik mohiyati.
11. Milliy g'oya- millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash omili. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenlik tamoyili.
12. Komil insonni shakllanishida milliy g'oyaning o'imi.
13. O'zbekistonda ma'naviy tahdidlarni oldini olishning shart- sharoitlari va

- omillari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslari
14. Ommaviy madaniyatning milliy g'oyaga zidligi, uning oldini olish shart-sharoitlari, omillari.
15. Jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy, mafkuraviy manfaatlari

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllarda foydalanish tavsiya etiladi;

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash;
- yangi texnikalari, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabning o'quv - ilmiy - tadqiqot ishlarni bajarish bilan bog'liq fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- internetdan foydalanish;

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanining ob'ekti predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Milliy g'oyaning shakllanish tarixi, uning namoyon bo'lish xususiyatlari.
3. Mustaqillik va milliy istiqbol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi.
4. Milliy g'oya tipologiyasi.
5. Milliy g'oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlikni taminlash omili.
6. Milliy g'oya konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari.
7. O'zbekiston mustaqil demokartik taraqqiyotining milliy g'oya konsepsiyasi bilan bog'liqligi.
8. Milliy g'oyaning jamiyat hayoti sohalari bilan bog'liqligi.
9. Milliy g'oya inson - eng oliy qadriyat.
10. Globallashuv sharoitida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi.
11. Milliy g'oyaning umumbashariy qadriyatlar va tamoyillar bilan uyg'unligi.
12. Inson erkinligi, huquq va manfaatlarining milliy g'oyada aks etishi.

13. Milliy g'oyada siyosiy institutlar va mafkuralar xilma-xilligi tamoyili.
14. Milliy g'oya negizlarini asrab - avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari.
15. Axborot xavfsizligini ta'minlash barqaror taraqqiyot omili.
16. XX asr mafkuraviy jarayonlar asri sifatida
17. Milliy g'oyaning umummafkuraviy jarayonlar bilan bog'liqligi
18. Kamil insonni shakllanishida milliy g'oyaning o'rni.
19. Milliy g'oyaning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish mexanizmlari va vositalari.
20. Bunyodkor g'oyalarning gumanistik xarakteri.
21. Milliy g'oya- O'zbekiston xalqining ishonch - e'tiqodi manbai.
22. Mafkuraviy immunitet, xavfsizlik va barqarorlikning o'zaro munosabati.
23. Bunyodkor va vayronkor g'oyalar.
24. Milliy mentalitet modellari
25. Milliy g'oyaning umummafkuraviy jarayonlar bilan bog'liqligi.
26. Yoshlar va milliy g'oya.
27. Milliy g'oyada ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi.
28. Ta'lim va tarbiya milliy mafkurani anglash vositasi.
29. Milliy g'oya- millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash omili.
30. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenlik tamoyili.
31. Kamil insonni shakllanishida milliy g'oyaning o'rni.
32. Ma'naviyatga tahdidlarning oldini olishda milliy g'oyaga tayyanish zarurati.
33. Yot va zararli g'oyalarning ko'rinishlari, ularning oldini olishda milliy g'oyaning o'rni va ahamiyati.
34. "Ommaviy madaniyat"ning milliy g'oyaga zidligi, uning oldini olish shart-sharoitlari, omillari.
35. O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar va milliy g'oyaga ehtiyoj.
36. Dunyodagi mafkuraviy kurashlar sharoitida milliy g'oyaning zarurligi.
37. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda milliy g'oyaning ahamiyati.
38. Milliy g'oyaning milliy negizlar va umumdemokratik prinsiplarga asoslanishi.
39. Demokratiya - yuksak ma'rifat va madaniylashgan jamiyat shakli ekanligi.
40. Milliy g'oyaning ilmiy o'rganish, o'qitish va targ'ib - tashviq qilishning nazariy - metodologik asoslari.
41. O'zbekistonda g'oyaviy ta'lim - tarbiya va targ'ibot - tashviqot institusional tizimi.
42. Milliy istiqbol g'oyasni yoshlar ongiga singdirishning shakl va yo'nalishlari
43. Milliy g'oya, ma'naviyat va ma'rifat - taraqqiyot omili.
44. O'zbekistonda mustaqil demokartik taraqqiyotida milliy g'oyaga ehtiyojning

	ortishi.
	45. Yangi O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning asosiy tamoyillari.
3.	<p>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani predmeti, maqsad va vazifalari; - milliy g'oyaning shakllanish tarixi va uning namoyon bo'lish xususiyatlari; - milliy g'oyaning tipologiyasi; - mustaqillik va milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi; - milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari; - O'zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyotining milliy g'oya konsepsiyasi bilan mustarakligi haqida bilimga ega bo'lishi; - milliy g'oyaning jamiyat hayoti sohalarini bog'liqligini; - milliy g'oyada inson eng oliy qadriyat ekanligi, inson erkinligi, huquq va manfaatlarining milliy g'oyada aks etishini; - milliy g'oyaning siyosiy institutlar va mafkumalar xilma-xilligi tamoyiliga asoslanishini, O'zbekistonda hech qaysi mafkuraning davlat mafkumasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligini; - milliy g'oyani asrab-avaylash, uni himoya qilish lozimligini, uning rivojlanib, yangilanib borishi - umumiy qonuniyat ekanligini; <ul style="list-style-type: none"> • talaba mustaqil ish, amaliy mashg'ulot va arxeologik amaliyot jarayonida arxeologiya yodgorliklarini tashqi ko'rinishiga qarab, ularning turlari va tiplarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; (<i>ko'nukma</i>) • har bir davrning o'ziga xos yodgorliklarini turini va ularning tabiiy-geografik joylashish o'rinlarini, ulardan qanday qilib mavzuga xos tarixiy informatsiyalar olish va o'z pedagogik faoliyatida ulardan samarali foydalana olish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruza; • keys-stadi; • individual loyihalar; • taqdimotlar qilish; • guruhlarda ishlash; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish; • "BBB", "Venn diagrammasi", "SWOT-tahlil", "Zinama zina", "FSMU", o'yin, musobaqa.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>

6.	<p>VIII. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar – T.:O'zbekiston 2001 yil. 2. Nazarov Q. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Oliy ta'lim muassasalari uchun qo'llanma. –T.:“Yangi asr avlodi”, 2001 yil. 3. Nazarov Q. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (o'quv qo'llanma) . –T.:“Yangi asr avlodi”, 2002 yil. 4. Nazarov Q. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (o'quv qo'llanma) . –T.:“Yangi asr avlodi”, 2002 yil. 5. Ershashev I tahriri ostida. Milliy istiqlol g'oyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik). – T.:Akademiya, 2005 yil. 6. Nazarov Q. va bosh. Milliy g'oya va rahbar masuliyati. T.:G'afur G'ulom nashriyoti, 2007. 7. O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islohot qilish yo'lida. T.; Akademiya, 2005. 8. Yaxshilikov J. Ya va bosh. Milliy g'oya va mafkura. T.: “Fan” 2015. 9. G'aybullayev O. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. T. Fan va texnologiya 2019. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sh. Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.56 b. 2. Sh. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 b. 3. Sh. Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent“O'zbekiston”-2016 488b. 4. Sh. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent – “O'zbekiston” -2017.104 b. 5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b. <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni</p> <ol style="list-style-type: none"> 6. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabedagi “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-6108-son farmoni. 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli
----	---


2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi

Axborot manbalari


1. ww. tdpu. uz
2. www. ziyonet. uz
3. www. edu. uz
4. www. manaviyat. uz
5. www. bilim. uz.

7. Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024 yil " 06 " 09 dagi qarori bilan tasdiqlangan

8. Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:
V.L. Ashirov – Navoiy davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi

 V. Ashirov

9. Taqrizchilar:
"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi
I.f.f.d. dots. Daminov N.A.
Tarix kafedrasida o'qituvchisi dots. Narzullayev U.O.

Kafedra mudiri 
(imzo)

dots. Abuyev H.O.
(ismi, familiyasi)

№ 2024/1.13